



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **25,5** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,8** mingtaga kamaygan yoki **13,0** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **10,7** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-sentabrida **3,7** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **75,8** % ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
5621	Qarshi sh.	5118
1663	Shahrisabz sh.	1510
1480	G'uzor	1240
1251	Dehqonobod	986
1909	Qamashi	1703
2094	Qarshi	1909
2240	Koson	1717
2027	Kitob	1780
1303	Mirishkor	985
962	Muborak	861
1482	Nishon	1377
1426	Kasbi	1232
797	Ko'kdala	799
1475	Chiroqchi	1290
1457	Shahrisabz	1250
2116	Yakkabog'	1743

2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **25500** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3741** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Qarshi shahrida **5118** tani yoki jamiga nisbatan **20,1** % ni tashkil etdi.

2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*


Qarshi sh.	17,2
Mirishkor	16,7
Muborak	14,6
Nishon	14,4
Koson	11,5
Qarshi	11,0
Shahrisabz sh.	10,3
Kitob	10,0
Dehqonobod	9,4
Yakkabogʻ	9,4
Koʻkdala	9,4
Kasbi	9,3
Shahrisabz	8,8
Gʻuzor	8,4
Qamashi	8,1
Chiroqchi	7,6

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- oktabr holatiga, birlikda



2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **10,7** birlikni tashkil etib, bu koʻrsatkich 2023- yilga nisbatan **1,5** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori koʻrsatkich Qarshi shahrida **17,2** birlik, Mirishkor tumanida **16,7** birlik, Muborak tumanida **14,6** birlik, Nishon tumanida **14,4** birlik va Koson tumanida **11,5** birlikka yetdi.




* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xoʻjaliklarini qoʻshgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Qarshi shahri
– 17,2 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Kitob tumani
– 10,0 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Chiroqchi tumani
– 7,6 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida **17,2** birlik, Mirishkor tumanida **16,7** birlik, Muborak tumanida **14,6** birlik, Nishon tumanida **14,4** birlik, Koson tumanida **11,5** birlik, Qarshi tumanida **11,0** birlik, Shahrisabz shahrida **10,3** birlik, Kitob tumanida **10,0** birlik, Dehqonobod **9,4** birlik va Yakkabog' tumanida **9,4** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Qarshi shahri

17,2

Muborak tumani

14,6

Koson tumani

11,5

Mirishkor tumani

16,7

Nishon tumani

14,4

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

757	Qarshi sh.	665
210	Shahrisabz sh.	210
303	G'uzor	183
233	Dehqonobod	133
250	Qamashi	224
395	Qarshi	366
402	Koson	286
309	Kitob	248
221	Mirishkor	152
150	Muborak	134
279	Nishon	195
318	Kasbi	174
193	Ko'kdala	200
208	Chiroqchi	153
304	Shaxrisabz	170
402	Yakkabog'	248

2024- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qarshi shahri – 17,8 %, Qarshi tumani – 9,8 %, Koson tumani – 7,6 %, Kitob tumani – 6,6 %, Yakkabog' tumani – 6,6 %, Qamashi, tumani – 6,0 %, Shahrisabz shahar – 5,6 %, Ko'kdala tumani – 5,3 %, Nishon tumani – 5,2 % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **1293** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **810** ta hamda sanoatda **628** ta yangidan tashkil etilgan.

Tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahrida **665** ta, Qarshi tumanida **366** ta, Koson tumanida **286** ta hamda Kitob tumanida **248** ta yangidan tashkil etilgan.


■ 2023- y. ■ 2024- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-sentabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **26513** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **9581** (yoki **36,1** %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **6237** (yoki **23,5** %) ta, sanoat sohasida – **4534** (yoki **17,1** %) ta, xizmatlar sohasida – **4956** (yoki **18,7** %) ta va qurilish sohasida – **1205** (yoki **4,5** %) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




■ 2023- y. ■ 2024- y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **70,9** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,5** punktga ko'paygan. Ko'payishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining kamayishi bilan ifodalanadi.




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **99,6** % ni, chakana savdoda **95,0** % ni, yo'lovchi aylanmasida **94,1** % ni, yo'lovchi tashishda **92,1** % ni, yuk tashishda **87,7** % ni, qurilishda **69,3** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2024- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm


Dehqonobod	203,1
Ko'kdala	239,0
Kasbi	273,6
G'uzor	301,0
Yakkabog'	351,4
Shahrisabz	410,2
Shahrisabz sh.	463,4
Koson	465,3
Qarshi	469,4
Qamashi	494,5
Mirishkor	506,5
Kitob	512,2
Muborak	512,6
Chiroqchi	553,1
Nishon	560,8
Qarshi sh.	1655,8

* Tumanlar kesimida yashirin iqtisodiyot kuzatuv ma'lumotlari kiritilmagan

2024- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **10149,1** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (**1655,8** mlrd. so'm), Nishon (**560,8** mlrd. so'm), Chiroqchi (**553,1** mlrd. so'm), Muborak (**512,6** mlrd. so'm) va Kitob (**512,2** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Dehqonobod tumanida (**203,1** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2024- yil yanvar-sentabrda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 35,3 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-sentabrda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Ko‘kdala tumani (100,0 %), Chiroqchi tumani (89,9 %), Shahrisabz shahri (86,3 %), Mirishkor tumani (78,6 %), Shahrisabz tumani (72,5 %), Muborak tumani (65,8 %), Qamashi tumani (60,1 %), Qarshi shahri (47,9 %), Yakkabog‘ tumani (46,3 %), Kitob tumani (41,5 %) va Koson tumani (40,1%) tashkil etdi.

Ko'kdala	100,0
Chiroqchi	89,9
Shahrisabz sh.	86,3
Mirishkor	78,6
Shahrisabz	72,5
Muborak	65,8
Qamashi	60,1
Qarshi sh.	47,9
Yakkabog'	46,3
Kitob	41,5
Koson	40,1
Dehqonobod	25,9
Qarshi	25,2
Kasbi	22,9
G'uzor	9,2
Nishon	7,6

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



■ hajmi, mlrd. so'm ● ulushi, %

2024- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Yakkabog'	207,4	80,9
Shahrisabz	205,9	82,7
Chiroqchi	348,1	73,1
Ko'kdala	47,1	100
Kasbi	116,4	89,4
Nishon	101,5	18,9
Muborak	171,7	25,1
Mirishkor	63,3	54,4
Kitob	215,5	85,9
Koson	337,6	72,8
Qarshi	478,3	70,8
Qamashi	151,1	95,6
Dehqonobod	111,9	96,5
G'uzor	407,2	50,4
Shahrisabz sh.	210,7	71,4
Qarshi sh.	1857,8	69,0

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **7186,4** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **69,3** % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **95,0** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri (**1857,8** mlrd. so'm), Qarshi (**478,3** mlrd. so'm), G'uzor (**407,2** mlrd. so'm), Chiroqchi (**348,1** mlrd. so'm), Koson (**337,6** mlrd. so'm), Kitob (**215,5** mlrd. so'm) tumanlari hamda Shahrisabz shahri (**210,7** mlrd. so'm) da qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **11000,0** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **45,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **177,5** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Nishon tumani (**5391,9** mlrd. so'm), Qarshi shahri (**1137,9** mlrd. so'm), Chiroqchi tumani (**606,3** mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (**522,8** mlrd. so'm), G'uzor tumani (**489,5** mlrd. so'm), Muborak tumani (**214,2** mlrd. so'm), Kitob tumani (**392,9** mlrd. so'm) hamda Koson (**193,5** mlrd. so'm) tuman- larida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **31064,7** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **99,6** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **104,6** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Kitob (**3125,7** mlrd. so'm), Koson (**2906,1** mlrd. so'm), Qamashi (**2605,9** mlrd. so'm), Kasbi (**2555,2** mlrd. so'm), Yakkabog' (**2507,6** mlrd. so'm) hamda Qarshi (**2252,1** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Yakkabog'	2507,6	99,5
Shahrisabz	2098,0	99,5
Chiroqchi	2219,6	100,0
Ko'kdala	1589,4	100,0
Kasbi	2555,2	98,6
Nishon	2106,2	98,3
Muborak	1539,8	99,9
Mirishkor	1923,7	99,9
Kitob	3125,7	99,6
Koson	2906,1	100,0
Qarshi	2252,1	99,8
Qamashi	2605,9	100,0
Dehqonobod	1192,5	99,9
G'uzor	1990,2	99,9
Shahrisabz sh.	215,6	100,0
Qarshi sh.	237,1	97,2

hajmi, mlrd. so'mda
ulushi, % da

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **16355,8** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **95,0 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **108,3 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Yakkabog'	817,6	98,8
Shahrisabz	510,6	83,9
Chiroqchi	1354,0	97,5
Ko'kdala	523,7	93,0
Kasbi	541,6	98,9
Nishon	642,3	99,2
Muborak	467,8	99,5
Mirishkor	579,1	99,2
Kitob	849,7	98,0
Koson	1318,5	94,0
Qarshi	658,7	98,6
Qamashi	1171,2	99,0
Dehqonobod	528,6	98,9
G'uzor	657,1	95,0
Shahrisabz sh.	1278,9	96,5
Qarshi sh.	3944,2	91,8

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (**3944,2** mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (**1278,9** mlrd. so'm), Koson (**1318,5** mlrd. so'm), Chiroqchi (**1354,0** mlrd. so'm), Qamashi (**1171,2** mlrd. so'm), Yakkabog' (**817,6** mlrd. so'm) Kitob (**849,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **22040,2** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **75,1 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **111,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (**1927,9** mlrd. so'm), Koson tumani (**889,3** mlrd. so'm), Kitob tumani (**877,1** mlrd. so'm), Qarshi tumani (**768,3** mlrd so'm), Qamashi tumani (**744,7** mlrd. so'm), Shahrisabz tumani (**722,1** mlrd. so'm), Yakkabog' tumani (**691,8** mlrd so'm) va Mirishkor (**623,8** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari (yanvar-sentabr oylarida)

5317,7	Savdo xizmatlari	24,1
3313,7	Transport xizmatlari	15,0
714,3	Shaxsiy xizmatlar	3,2
804,6	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,7
9917,0	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	45,0
442,1	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,0
372,4	Ijara xizmatlari	1,7
714,3	Boshqa xizmatlar	3,2
254,6	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,2
85,5	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,4
92,1	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,4
172,9	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,8
64,2	Moliyaviy xizmatlar	0,3

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **24,1** % (**5317,7** mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **15,0** % (**3313,7** mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda – **3,2** % (**714,3** mlrd. so'm) hamda Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarida – **3,7** % (**804,9** mlrd. so'm) ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,3** % (**64,2** mlrd so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **70,2** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **17,5** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yakkabog'	1962,6	26,6
Shahrisabz	8240,2	57,2
Chiroqchi	24789,0	93,2
Ko'kdala	8431,9	100,0
Kasbi	4964,3	6,8
Nishon	605,0	0,4
Muborak	1749,4	71,2
Mirishkor	2920,2	100,0
Kitob	8850,9	99,8
Koson	9578,1	43,9
Qarshi	2591,1	3,5
Qamashi	5463,6	86,1
Dehqonobod	2273,7	100,0
G'uzor	4146,6	85,9
Shahrisabz sh.	3442,0	100,0
Qarshi sh.	5752,8	34,4

hajmi, ming. AQSH dollar

ulushi, % da

2024- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Ko'kdala, Dehqonobod va Mirishkor tumanlarida – **100,0** %, Shahrisabz shahrida – **100** %, Kitob tumanida – **99,8** % Chiroqchi tumanida – **93,2** %, Qamashi tumanida – **86,1** %, G'uzor tumanida – **85,9** %, Muborak tumanida – **71,2** %, Shahrisabz tumanida – **57,2** %, ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Nishon tumanida – **0,4** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **400,0** million AQSH dollarini yoki jami importning **73,3** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi. % da

2024- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi, Mirishkor va Chiroqchi tumanlarida – **100** %, Ko'kdala tumanida – **99,7**%, Muborak tumanida – **89,4** %, Shahrisabz shahrida – **86,4** %, Qarshi hamda shahrida – **72,9** % ni tashkil etdi.


Qamashi	5,6
Yakkabog'	18,2
Qarshi	23,1
Koson	51,6
Shaxrisabz	52,6
Dehqonobod	59,9
G'uzor	60,7
Kitob	61,8
Kasbi	63,0
Nishon	63,4
Qarshi sh.	72,9
Shahrisabz sh.	86,4
Muborak	89,4
Ko'kdala	99,7
Mirishkor	100,0
Chiroqchi	100,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2024- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **87,7 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **102,9 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2024- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,5 %** ni tashkil etgan bo‘lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **109,6 %** ni tashkil qildi.



Yo‘lovchi
tashishda

2024- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,1 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **109,7 %** ni tashkil qildi.




Yo‘lovchi
aylanmasida

2024- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,1 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **99,1 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil III- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil III- chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1059** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **562 (53,1 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **396 (37,4 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **100 (9,4 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **44,4 % (470 ta)**, xizmatlar sohasida – **22,9 % (243 ta)**, sanoatda – **12,7 % (134 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **11,7 % (124 ta)**, qurilishda – **8,3 % (88 ta)**, ni tashkil etdi.

2024- yil III- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil III-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

246	Qarshi sh.	23,2
80	Shahrisabz sh.	7,6
33	G'uzor	3,1
33	Dehqonobod	3,1
50	Qamashi	4,7
90	Qarshi	8,5
73	Koson	6,9
78	Kitob	7,4
36	Mirishkor	3,4
37	Muborak	3,5
51	Nishon	4,8
45	Kasbi	4,2
29	Ko'kdala	2,7
65	Chiroqchi	6,1
52	Shahrisabz	4,9
61	Yakkabog'	5,8


Jami birlikda

Ulushi, foizda

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (246 ta), Qarshi (90 ta), Shahrisabz shahri (80 ta), Kitob (78 ta), Koson (73 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III- choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning III- choragida **425** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III- choragiga kelib esa **563** taga yetgan yoki 2019- yilning III- choragiga nisbatan **138** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **431** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabrida **396** ta yoki **35** taga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **87** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **100** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **13** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III- choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning III- choragida **380** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III- choragiga kelib esa **572** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **192** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning III- choragida **415** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III- choragida **306** ta yoki **109** taga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilning III- choragida **77** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning III- choragiga kelib, bu ko'rsatkich **75** tani tashkil etib, **2** taga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III- choragida **45,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **53,2** % ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **8,1** % birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilda **45,7** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III- choragida **37,4** % yoki **8,3** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilda **9,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **9,4** % ga yetgan yoki **0,2** % ga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar II- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ish-bilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III- choragida **43,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **60,0** % ga yetgan yoki 2019- yilning III- choragida nisbatan **16,4** % birlik ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III- choragida **47,6** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabrida **32,1** % yoki **15,5** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning III- choragida **8,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning III- choragiga kelib, bu ko'rsatkich **7,9** % yoki **0,9** % birlikka kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024- yilning III- choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **24,1** % ni, xizmatlar sohasida – **12,4** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,7** % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **16,7** % ni, xizmatlar sohasida – **8,9** % ni, sanoat sohasida – **5,1** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida – **3,6** % ni, xizmatlar va sanoat sohaslarida – **1,7** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024- yilning III- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni yaxshilanish deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **27,3** % ni, xizmatlar sohasida – **14,3** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **7,1** % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **14,5** % ni, xizmatlar sohasida – **7,6** % ni, sanoatda – **4,4** % ni, tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni yomonlashish deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **2,3** % ni, xizmatlar sohasida – **1,5** % ni, sanoatda – **1,3** % ni, tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, %
da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	58,5	32,9	8,6
Band bo'lganlar soni	50,6	42,5	6,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	53,9	38,7	7,4
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	41,2	51,1	7,7
Raqobat muhiti	61,0	33,5	5,4

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	63,8	31,9	4,3
Band bo'lganlar soni	55,8	40,5	3,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	59	36,9	4,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	47,2	47,9	4,9
Raqobat muhiti	65,9	31,3	2,8


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning III- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli